


## Qoraqalpog'iston Respublikasida oliy ta'lim tizimining asosiy ko'rsatkichlari

2018 yilning 1 noyabr holatiga Qoraqalpog'iston Respublikasida 2 ta oliy ta'lim muassasalari va 4 ta filiallar faoliyat yuritmoqda.

2018/2019 o'quv yili boshiga oliy ta'lim muassasalaridagi jami 22,3 ming nafar talabalar ta'lim olayotgan bo'lib, ularning 53,0 foizi qizlar tashkil etadi. Talabalarning 26,1 foizi davlat grantlari asosida ta'lim olmoqda.


2018/2019 o'quv yili boshiga jami 1541 professor o'qituvchilar ta'lim bermoqda, ulardan 48,3% ayol o'qituvchilar tashkil etadi. Asosiy xodimlardan Ilmiy darajaga ega 60 nafar fan doktorlari, 372 nafar fan nomzodi va ilmiy unvonga ega 31 nafar professor va 224 nafar dotsentlar tashkil etadi.

### Ta'lim sohalari bo'yicha ta'lim olayotgan jami talabalar, %




2018 yili bitiruvchilarining 52,1 foizi gumanitar soha, 4,8 foizi ijtimoiy soha, iqtisod va huquq sohasi, 22,6 foizi ishlab chiqarish va texnika sohasi, 10,3 foiz qishloq va suv xo'jaligi, 9,2 foiz sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi, 1,0 foizi xizmatlar sohasi bo'yicha bitirgan


## Ta'lim sohalari bo'yicha qabul qilingan jami talabalar, %



## Ta'lim olib boriladigan tillar bo'yicha oliy ta'lim muassasalari jami talabalar, %




## Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalarining jinsi bo'yicha taqsimlanishi, %




2018-yilda bakalavr darajasiga ega bo'lgan talabalar soni 21697 nafarni tashkil etib, ularning 5706 nafari davlat grantlari asosida ta'lim olgan. 2018 yilda bakalavriyat bosqichini bitirganlarning 2212 nafari qizlar (50,0%) tashkil etadi.

## O'qiydigan kurslari bo'yicha bakalavriyat bosqichi talabalari soni, kishi




Jami ta'lim olayotgan bakalavr bosqichidagi talabalar soni 21697 nafarni tashkil etgan bo'lib, gumanitar sohada 12337 nafar, ijtimoiy soha, iqtisod va huquq yo'nalishida 957 nafar, ishlab chiqarish va texnika sohada 4826 nafar, qishloq va suv xo'jaligi yo'nalishida 2155 nafar, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot yo'nalishida 1466 nafar, xizmatlar sohasida 226 nafar talabalar ta'lim olmoqda.

### Ta'lim sohalari bo'yicha bakalavriyat bosqichiga qabul qilingan jami talabalar, %




### 2018/2019 o'quv yilida oliy ta'lim muassasalari bakalavriyatiga qabul



Bakalavriat bosqichi bitiruvchilarining 51,6 foizi gumanitar soha, 4,8 foizi ijtimoiy soha, iqtisod va huquq sohasi, 22,9 foizi ishlab chiqarish va texnika sohasi, 10,4 foiz qishloq va suv xo'jaligi, 9,3 foiz sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi, 1,0 foizi xizmatlar sohasi bo'yicha bitirgan.


## Oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichiga talabalar qabuli

2018/2019 o'quv yili uchun magistraturaga qabul qilingan jami 181 nafar talabalardan 38,7 foizi (70 nafari) davlat granti asosida, 61,3 foizi (111 nafari) to'lov shartnoma asosida qabul qilindi. Har 100 o'ringa o'rtacha 289 ta ariza topshirilgan.



## Oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichida ta'lim olayotgan talabalarining ta'lim sohalari bo'yicha taqsimlanishi

Magistratura bosqichida ta'lim olayotgan jami talabalar soni 305 nafarni tashkil etib, ulardan 78,0 foizi gumanitar sohada, 9,2 foizi ijtimoiy soha, iqtisod va huquq sohasi bo'yicha, 3,3 foizi ishlab chiqarish va texnika sohasida, 6,6 foizi qishloq va suv xo'jaligi sohasi bo'yicha, 1,3 foizi sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi bo'yicha, 1,6 foizi xizmatlar sohasida ta'lim olmoqda.



**Qoraqalpog'iston Respublikasi  
statistika boshqarmasi  
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi  
Tel.: (61) 222-79-83  
(71) 230-82-04**